

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

Ro‘yxatga olindi:

“TASDIQLAYMAN”  
 O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

№ \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

201\_ y. «\_\_» \_\_\_\_\_

“\_\_” \_\_\_\_\_ 201\_ yil

**DIRIJYORLIK**  
**FANINING**  
**ISHCHI O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100 000 –Gumanitar soha  
 Ta‘lim sohasi: 150 000 –San‘at  
 Ta‘lim yo‘nalishi: 5111000 -Kasb ta‘limi(5151600- Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi))

Talabanning o‘quv yuklamasi, soat								Semestrlar, soat							
Umumiy yuklama hajmi	Auditoriya mashg‘ulotlari						Mustaqil ish	1	2	3	4	5	6	7	8
	Jami	Ma‘ruza	Amaliy mashg‘ulot	Laboratoriya ishi (yakka)	Seminar	Kurs loyihasi (ishi)									
<b>358</b>	<b>272</b>		<b>272</b>	-	-	-	<b>86</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida №BD-5151600-4.01; raqam bilan 08 avgust 2016 yilda ro'yxatga olingan namunaviy o'quv dasturi asosida tuzilgan

**Tuzuvchi:**

Malikova C.C – O'zDSMI, «Vokal» kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Fanning ishchi o'quv dasturi "Vokal" kafedrasining 201\_ yil \_ \_\_\_\_\_ \_-son yig'ilishida muhokama etildi va institutning Badiiy-o'quv-uslubiy Kengashiga tavsiya etildi

**Kafedra mudiri:**

**Pirmatov Sh.T.**

**Kotib:**

**Eminov N.Q**

**O'quv ish o'quv dasturi institutning Badiiy-o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi ("\_\_" \_\_\_\_\_ 2016 yil, 1-sonli bayonnoma)**

Badiiy-o'quv-uslubiy kengash raisi \_\_\_\_\_ R.Ismoilov

## **Fanning dolzarbligi**

Ushbu dastur “Dirijyorlik” fanining tarixi, rivoji, yoʻnalishlari, istiqboli hamda sohaning ilk davridan to bugungi kunga qadar boʻlgan shakllanish jarayonini, turli davr, stil va janrlarda yaratilgan asarlar bilan tanishishni qamrab oladi.

Sanʼat sohasida zamonaviy, har tomonlama kamol topgan yetuk mutaxassis tarbiyalab etishtirishda, uni pedagog - xormeyster, vokal – xor jamoalari rahbari boʻlib shakllantirishda “Dirijyorlik” fanining oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. “Dirijyorlik” asosiy mutaxassislik fan hisoblanadi va malakali bilim berishdagi asosiy maqsadi, talabaning milliy va jahon miqyosidagi vokal-xor merosi namunalarini oʻrganib, dirijyorlik texnikasini egallashning ratsional usullarini, uslublarini amaliy qoʻllash, asarlarning ritmi, oʻlchovi, dinamik belgilari va mazmun - mohiyatini chuqur anglab yetish, asarning har bir partiturasini yoddan bilish, asarning ijrosi jarayonida har bir ovozlarni oʻz paytida qoʻl harakati orqali koʻrsata olish, shu vaqtning oʻzida olingan umumiy va musiqa madaniyatini tarbiyalash, dunyo qarashini kengaytirish hamda gʻoyaviy yonaltirishdir. Dirijyorlik fani yosh mutaxassislarni professional ijodkor boʻlib yetishishida asosiy bilim va manbaalardan foydalanish koʻnikmalarini oʻrgatish bilan birga, oʻquv jarayonini ilmiy tashkil qilib, metodik assoslangan rejali darslar va talabalarning oʻz ustida mustaqil ishlashini nazorat qiladi.

### **Fanning oʻquv rejadaga boshqa fanlar bilan oʻzaro bogʻliqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

“Dirijyorlik” fani ihtisoslik fanlari blokiga kiritilgan asosiy kurs hisoblanib, 1-8 semestrlar davomida oʻqitiladi. Mazkur fan umumkasbiy ( Xor sinfi, Vokal ansambli, Vokal-xor jamoasi bilan ishlash uslubiyoti, Aranjirovka, Solfedjio, Musiqa nazariyasi, Garmoniya, Musiqa tarixi va h.k.), mutahassislik (Vokal, Xor partiturasini oʻqish va transpozitsiya, Dirijyorlik amaliyoti, Fortepiano)–fanlari bilan mustahkam bogʻliq va ularning dirijyorlik mutaxassisini yuqori darajada tarbiya qilishda ahamiyati katta.

### **Fanning ilm-fan, sanʼat sohasi va ishlab chiqarishdagi oʻrni**

“Dirijyorlik” fanining ilm fan va sanʼat sohasida oʻrni beqiyosdir. Musiqadagi yirik janrlar opera, oratoriya, kantata, syuita asarlar ijrosida musiqachilar, yakkaxonlar va xor ijrochilari uchun dirijyorning boshqarish xatti-harakatlari juda muhimdir. Dirijyor kompozitor va shoirlar tomonidan yaratilgan asarlarning badiiy va musiqaviy obrazlarini ijrochilar bilan birga tinglovchilarga yetkazib beruvchi muhim shaxsdir. Dirijyorlik fani yosh mutaxassislarni professional ijodkor boʻlib yetishishiga asosiy manbaalarni oʻrgatadigan fandır.

### **Fanni oʻqitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda oʻquv mashgʻulotlarini loyihalash**

Talabalarning “Dirijyorlik” fanini oʻrganish jarayonida oʻqitishning ilgʻor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot–pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni oʻzlashtirishda jahon va oʻzbek kompozitorlari, xormeystrlarining vocal-xor asarlari, xrestomatiyalar, kompyuterdagi nota terish

dasturlari, audio-video vositalaridan foydalanish, chet el va o‘zbek kompozitor hamda bastakorlarining yangi asarlarini tinglash, ushbu asarlarni tahlil etish, yakuniy reyting nazoratida namoyish etish.

### Fan modulining dasturi (module Syllabus)

<b>O‘quv kursining to‘liq nomi</b>	Dirijyorlik		
<b>Kursning qisqacha nomi:</b>	Dirijyorlik		
<b>Kafedra:</b>	Vokal		
<b>O‘qituvchi haqida ma‘lumot:</b>	1.Pfn , dotsent Malikova Sevar Samatovna. 2. Dosent v.b. Malikova Dilbar Mirsagdievna	malikova s . <a href="mailto:1953@umail.uz">1953@umail.uz</a> Dilbar.malikova.1957@mail.uz	
<b>Semestr va o‘quv kursining davomiyligi:</b>	1-8 semestrlar 136 hafta		
<b>O‘quv soatlari hajmi:</b>	<b>Jami:</b>	<b>358</b>	
	<b>Shuningdek:</b>		
	<b>Ma‘ruza:</b>	-	
	<b>Amaliy:</b>	-	
	<b>Seminar:</b>	-	
	<b>Yakka:</b>	<b>272</b>	
	<b>Mustaqil ta‘lim:</b>	<b>86</b>	
<b>O‘quv kursining statusi:</b>	Ixtisoslik fanlar bloki		
<b>Dastlabki tayyorgarlik:</b>	Kurs “Dirijyorlik” fanidan o‘zlashtirilgan bilim va malakalari, iste’dodi va eshitish qobiliyatiga asoslanadi		
<p><b>Fanning predmeti va mazmuni:</b> talabalarga “Dirijyorlik” fanidan ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib bo‘lajak vokal-xor jamoalari pedagog-rahbarlariga dars jarayonida dirijyorlikning asoslari va qoidalarini to‘g‘ri shakllantirish, jamoa tashkil qilishda ovozlar tasnifini to‘g‘ri anglash (xotin- qizlar, erkaklar va bolalar ovozlari), xor uchun repertuar tanlash, asarlarni tahlil etib ustida ishlash, asarlarni jamoaga o‘rgatish, ijrosini his qilish, kompozitorlarning turli davr, janr va stilda yaratilgan asarlari bilan bir qatorda zamonaviy talablar asosida talqin etishni o‘rganish hamda sahna madaniyati ko‘nikma malakalarini mukammal o‘zlashtirishga zamin bo‘ladi va quyidagi vazifalarni hal etishni ko‘zda tutadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- yakka mashg‘ulotlarda dirijyorlik san’ati va tarixi haqida ma‘lumotlarga ega bolib, talaba dirijyorlik apparati, bosh, qo‘l va oyoqlar hamda gavdaga xos asosiy holatlarni egallashi;</li> <li>- asar ijrosida dirijyorlik imo-ishoralari, auftakt- ijroni boshlash, ijroni davom ettirish va ijroni tugallash uslublarini qo‘llashi;</li> <li>- turli xorlar bilan ishlaganda dirijyorlik holatlarini, ular uchun yozilgan asarlar partiturasini, 3/4, 4/4, 2/4 oddiy, murakkab 5/8, 5/4, 6/8, 6/4, 7/8, 7/4, 9/8, 9/4, 11/4, 12/8 va aralash murakkab o‘lchovlarni o‘zlashtirib asarlarni dirijyorlik qilishi, jo‘rnavor bilan ishlash xususiyatlarini o‘zlashtirishi;</li> <li>- talaba berilgan asarlar ohangini dirijyorlik qilib kuylashi, a capella va jo‘rli asarlar partiturasini chalishi, gorizantal va vertikal kuylashi;</li> <li>- turli o‘lchovlardagi asarlarda kuchli va kuchsiz hissalarini ajarata olishi va qo‘l</li> </ul>			

harakatlari orqali ko'rsata bilishi;

- nafas olish va uni uzish xarakati, aniqlilik, usullilik, tejamkorlik va qo'lni to'g'ri holatda harakatlantirib agogik, dinamik ko'rsatmalarni aks ettirish texnikasi ko'nikmalarini o'zlashtirishi va namoyish eta olishi;

- talaba xor uchun yozilgan a capella janri, ashula, syuita, kantata, oratoriya, musiqa drama vaopera asarlarini, estrada va xalq qo'shiqlarining musiqiy-nazariy va vokal-xor xususiyati va yozuvini tahlil etishi;

- o'zbek va jahon xor musiqasi adabiyotidan turli janrdagi oddiy, murakkab va aralash o'lchovdagi asarlarga dirijyorlik qilishi;

- asar suratini aniq saqlagan holda talaba dinamik tushlarni ko'rsatib, asarning badiiy g'oyasi xarakteri va mazmuniga xos dirijyorlik qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

**Fanni o'qitishdan maqsad:** "Dirijyorlik" fanini o'qitishdan maqsad, talabalarda professional dirijyorlik malakalarini tarbiyalab, o'zbek xor san'ati rivojiga hissa qo'sha oladigan, vokal-xor fanlaridan malakali bilim bera oladigan, vocal-xor jamoalariga rahbarlik qila oladigan kadrlar yetishtirish.

**Fanning vazifasi:** "Dirijyorlik" fanini o'rganish jarayonida bakalavr quyidagilarni bajara olishi lozim:

- dirijyor kasbi va dirijyorlikning ijtimoiy mohiyati;
- dirijyorlikning kasb sifatida vujudga kelishi;
- dirijyorlikning ijodiy maktablari va yo'nalishlari;
- dirijyorlikning nazariy va amaliy asoslari;
- dirijyorlik funksiyasi;
- professional dirijyorlikning paydo bo'lishi va rivojlanishi;
- o'zbek milliy vokal- xor san'atining tug'ilishi va shakllanishi;
- vokal- xor san'atining asosiy yo'nalishlari, janrlari;
- vokal- xor jamoasi va rahbar dirijyor o'rtasidagi munosabatlar;
- vokal- xor jamoasining tashkiliy masalalari;
- jahon xor san'ati rivojiga hissa qo'shgan kompozitor va xormeysterlar ijodi;
- jahon kompozitorlari va xormeysterlarining turli yonalish va janrda yaratgan vocal- xor asarlari;
- o'zbek vokal-xor san'ati milliy xususiyatlarining muhim (aktual) estetik muammolari;
- o'zbek san'ati tarixida taniqli dirijyor va xormeysterlar ijodi;
- o'zbek kompozitorlari va xormeysterlarining turli yonalish va janrda yaratgan vocal- xor asarlari;
- dirijyorlik qilinadigan asarlarni nazariy hamda amaliy o'zlashtirib kollokviumga tayyorlash;
- asar janri va mualliflari haqida tushunchalar;
- vokal-xor asarlarini musiqiy-nazariy tahlil qilish usullari;
- vokal-xor asarlarini vokal-xor tahlil qilish usullari;
- asarlarni fortepianoda chalish ;
- vokal-xor asarlar ovozi gorizontal va vertikal kuylash;
- dirijyorlik xarakatlari- nafas, auftakt, asar ijrosi davomida nafas olish, uzish;
- tovush yonalishi va tugashining tahlili va uni ko'rsatish;

- asarni yozuv uslubiga asoslangan holda (gormonik, gomofonno-gormonik va polifonik) ovoz partiyalarining kuylash yo`llari tahlili va o`z o`rnida ko`rsatish;
- qo`llarning vazifalari- ovozlarni taqsimlash va asarga mos holda ko`rsatish;
- asar tempi va xarakteriga mos holda qo`llarni xarakatlantirish;
- asarning dinamik belgilari tahlili va ularni ko`rsatish;
- asarning agogik belgilari tahlili va ularni ko`rsatish;
- turli ko`rinishdagi (bolalar, ayollar, erkaklar, aralash) xor asarlari tahlili, xusiyatlari va ularga dirijyorlik qilish
- asarlarni dirijyorlik qilishda, asar xarakteriga mos imo-ishoralarni o`zlashtirish;
- asarni dirijyorlik qilish jarayonida ovozlarni kuylash;
- turli tempdagi asarlarni dirijyorlik qilish;
- oddiy o`lchovdagi asarlarni dirijyorlik qilish;
- murakkab o`lchovdagi asarlarni dirijyorlik qilish;
- aralash murakkab o`lchovdagi asarlarni dirijyorlik qilish;
- jahon va o`zbek kompozitorlarining jo`rsiz asarlar janri namunalaridan-“a`kapella” asarlarini o`zlashtirib dirijyorlik qilish;
- jahon va o`zbek kompozitorlarining opera va musiqali drama asarlaridan xor sahnalarini o`zlashtirib dirijyorlik qilish;
- jahon va o`zbek kompozitorlarining kantata-oratoriya va suita janridagi asar namunalaridan qismlarni o`zlashtirib dirijyorlik qilish;
- jahon va o`zbek kompozitorlarining orkestr va fortepiano jo`rligidagi asar namunalarini o`zlashtirib dirijyorlik qilish;
- asarlarni o`zlashtirish jarayonida jo`nnavoz bilan hamkorlikda, ansamblda ishlash;
- belgilangan dasturni to`liq yod olib, fortepiano jo`rligida namoyish qilish.
- yakuniy Davlat Attestatsiyasiga tayyorgarlik ko`rish
- yakuniy Davlat Attestatsiyasida belgilangan dasturni xor ijrosida dirijyorlik qilish.

### **YAKKA MASHG‘ULOTLARNING MAZMUNI**

**Faning (yakka) mustaqil mashg‘ulotlarining soatlar bo‘yicha taqsimot jadvali**

Kurs	Semestr	darslar soati	Xaftalar soni	Soatlarni taqsimlash (amal.)	Yillik soat hisoboti
1	I	2	18	36	72
	II	2	18	36	
2	III	2	18	36	72
	IV	2	18	36	
3	V	2	18	36	72
	VI	2	18	36	
4	VII	2	18	36	56
	VIII	2	10	20	
JAMI					272

"Dirijyorlik" bo'yicha 4 yillik o'quv davomidagi soatlar **jami** – 272 soat, mustaqil ta'lim – 86 soat.

**1-semestr**

<b>T.r.</b>	<b>Yakka mashg'ulotning tarkibiy qismlari</b>	<b>Auditoriya soati</b>	<b>Mustaqil ta'lim soati</b>
1.	Usullik	2	1
2.	Tejamkorlik, aniqlik	3	1
3.	Gavda, bosh va qo'llarni to'g'ri holatda tutish	2	1
<b>Joriy nazorat (JN)</b>			
4.	O'ng qo'l va chap qo'l vazifalarini o'rganish	4	1
5.	Oddiy va murakkab o'lchovlariga dirijyorlik qilish	4	1
6.	O'lchovlarni hissali shaklda dirijyorlik qilish	3	1
<b>Joriy nazorat (JN)</b>			
7.	Asarning dinamik tuslariga e'tibor berish	4	1
8.	Asarlarning tempini his etib dirijyorlik qilish	4	1
9.	Asarning nazariy tahlili	4	1
<b>Joriy nazorat (JN)</b>			
10.	Murakkab o'lchovlar ustida ish olib borish	3	1
11.	Badiiy jamoa bilan muloqot va ish olib borish malakalarini egallash	3	1
<b>Joriy nazorat (JN)</b>			
	<b>JAMI</b>	<b>36</b>	<b>11</b>

**Izoh:** Yakka mashg'ulotning mazmunida keltirilgan tarkibiy qismlar alohida holda o'zlashtirilmasdan har bitta yangi asarni o'rganish jarayonida mashg'ulotlarning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. 1-2 semestrda talaba 6 tadan, 3 dan 6 semestrgacha talaba 5 tadan, 7-8 semestrda talaba 3 tadan kam bo'lmagan asarni o'zlashtirishi shart. Tanlanadigan asarlarning kamida ikkitasi o'zbek kompozitorlari yoki bastakorlarining qayta ishlangan (fortepiano yoki xor uchun moslashtirilgan) asarlaridan, bittasi G'arbiy Yevropa kompozitorlari asarlaridan, bittasi qardosh xalq musiqalaridan bo'lishi mumkin. Asarlar xarakter, o'lchov, murakkabligi jihatidan turlicha bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Beshinchi semestrda boshlab kamida bitta asar xor partiturasidan dirijyorlik qilinishi, kamida bittasi yirik shakl (suitsa, kantata, oratoriya va operadan)da bo'lishi kerak.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shukurov J. Dirijyorlik. O'quv qo'llanma -Toshkent: 2006 y.
2. Bagirova F. Dirijyorlik. O'quv qo'llanma-Toshkent: 2010 y.
3. Musin I. Yazik dirijerskogo jesta. Uchebnoe posobiye-Muzika., M. 2006 y.
4. Chet el, rus va o'zbek kompozitorlari: Opera, oratoriya va kantatalaridan ariyalar, qo'shiqlar va romanslar.1960-2014y
5. Kazachkov S. Dirijerskiy apparat i ego postanovka. Uchebnoe posobiye -Muzika M.1967g.

### Tavsiya etiladigan asarlar ro'yxati

№	Asar nomi	Asar muallifi
1	O'zbekiston davlat madhiyasi	A.Oripov so'zi, M.Burxonov musiqasi
2	O'zbekiston vatanim manim	J.Jabborov so'zi, D.Omonullaeva musiqasi
3	O'zbekiston ona, onajon	A.Qo'shoqov, A.Mansurov
4	Xarbiy o'g'lonlar	F.Mallabaev, A.Mallaboev
5	Shodiyona	I.Jiyanov, A.Mallaboev musiqasi
6	Diyorim o'lkam	O'.Rashid, H.Raximov

\* Tavsiyaviy adabiyotlar murakkablik, o'lchov, xarakter jihatidan mos keladigan asarlar bilan almashtirilishi mumkin.

## YAKKA MASHG'ULOTLARNING MAZMUNI

### 2-semestr

T.r.	Yakka mashg'ulotning tarkibiy qismlari	Auditoriya soati	Mustaqil ta'lim soati
1.	Usullik	2	1
2.	Tejamkorlik, aniqlik	3	1
3.	Gavda, bosh va qo'llarni to'g'ri holatda tutish	2	1
<b>Joriy nazorat (JN)</b>			
4.	O'ng qo'l va chap qo'l vazifalarini o'rganish	4	1
5.	Oddiy va murakkab o'lchovlariga dirijyorlik qilish	4	1
6.	O'lchovlarni hissali shaklda dirijyorlik qilish	3	1
<b>Joriy nazorat (JN)</b>			
7.	Asarning dinamik tuslariga e'tibor berish	4	1
8.	Asarlarning tempini his etib dirijyorlik qilish	4	1
9.	Asarning nazariy tahlili	4	1



	<b>Joriy nazorat (JN)</b>		
10.	Murakkab o'lovlar ustida ish olib borish	3	1
11.	Badiiy jamoa bilan muloqot va ish olib borish malakalarini egallash	3	1
	<b>Joriy nazorat (JN)</b>		
	<b>JAMI</b>	<b>36</b>	<b>11</b>

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shukurov J. Dirijyorlik. O'quv qo'llanma -Toshkent: 2006 y.
2. Bagirova F. Dirijyorlik. O'quv qo'llanma-Toshkent: 2010 y.
3. Musin I. Yazik dirijerskogo jesta. Uchebnoe posobiye-Muzika., M. 2006 y.
4. Chet el, rus va o'zbek kompozitorlari: Opera, oratoriya va kantataridan ariyalar, qo'shiqlar va romanslar.1960-2014y
5. Kazachkov S. Dirijerskiy apparat i ego postanovka. Uchebnoe posobiye -Muzika M.1967g.

### **Tavsiya etiladigan asarlar ro'yxati**

<b>№</b>	<b>Asar nomi</b>	<b>Asar muallifi</b>
1	Onamsan sen	Z,Ro'ziyeva. A.Mallaboev musiqasi
2	Ruboiy	X.Dexlaviy, B.Umidjonov
3	Vatan biznikidur	B.Bobomurodov, A.Mallaboev
4	Hay yor-yor	O'zbek halq qo'shig'i
5	Vatanni muqaddas bil	J.Abduvohidov, A.Mallaboev
6	Bulbul kelib sayrasin	O'zbek halq qo'shig'i B.Umidjonov,

### Talabalar bilimni baholash tizimi:

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari				
		Maks.	1-JN	2-JN	3-JN	4-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi.	17	0-4	0-4	0-4	0-5
2	Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, ijodiy jarayonlardagi mahorati.	18	0-4	0-4	0-5	0-5
3	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi.	17	0-4	0-5	0-4	0-4
4	Ijodiy jarayondagi repertuarlarning ijro sifati. Tashkilotchiligi.	18	0-5	0-5	0-4	0-4
<b>Jami JN ballari</b>		<b>70</b>	<b>17</b>	<b>18</b>	<b>17</b>	<b>18</b>

***Yakuniy nazorat dasturning yakuniy ijrosi natijasiga qarab maksimal 30 ball orqali baholanadi.***

<b>Asosiy adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine: &lt;<a href="http://cnx.org/content/col11191/1.1/">http://cnx.org/content/col11191/1.1/</a>&gt; Connexions Rice University, Houston, Texas, 2010.</li> <li>Shukurov J. Dirijyorli, "Istiqlol", Toshkent, 2006.</li> <li>Sharafiyeva N. Xor sinf., Musiqa nashriyoti, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2005.</li> <li>Mamirov M. Dirijyorlik, O'quv-uslubiy qo'llanma, Musiq, Toshkent, 2013.</li> <li>Shomaxmudova B. Xor lug'ati, Toshkent, "Musiqa", 2009.</li> </ol>
<b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Norxo'jayev N. Dilda bahor, G'.G'ulom nomli adabiyoti va san'at nashriyot., Qo'shiqlar to'plami, Toshkent, 1984.</li> <li>Qoziyev N. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi, 1,2,3,4 qism, O'quv qo'llanma –Toshkent. O'qituvchi. 1975-1978 y.</li> <li>Romanovskiya N. Xorovoy slovar, Izd.3. Uchebnoe posobie, Leningrad, Muzika, 1980.</li> </ol>

### **Fan bo'yicha talabalarining tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar**

Talabalar mashg'ulotlarda dirijyorlik fanining predmeti, maqsadi va vazifasi, havaskorlik xor jamoalarida dirijyor faoliyatini ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

O‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr - dirijyorlikda faol va sust harakatlar hamda kreshendo va diminuendo, subito forte va subito piano, dinamika, fermata, xor asarlarini tahlil qilish, xor partituralari, dirijyorlik pulti, repetitsiyalar jarayonini tashkil etish, jahon va O‘zbekistondagi taniqli xor dirijyorlari, mamlakatimizdagi professional xor jamoalar, xor jamoalari mavjud teatrlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

Dirijyorlikdagi shtrixlarni, kreshendo va diminuendolarni bajarishni, subito forte va subito pianoni qo‘llashni, dinamikani qo‘llay olishni, xor jamoasi bilan ishlash va muloqot qilishni, asarlarni tahlil qilishni, fermatalarni ifodalashni, dirijyorlik pultida o‘zini tutishni, repetitsiya jarayonini tashkil etishni, jahon va O‘zbekistondagi taniqli xor dirijyorlari haqida ma’lumotlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;

Badiiy jamoalarda manual harakatni qo‘llash, asar davomida dinamikani qo‘llay olish, xor bilan ishlash va muloqot qilish, asar davomida fermatalarni bajarish, dirijyorlik pultida o‘zini tutish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

Dirijyorlik fani eng asosiy mutaxassislik fani hisoblanadi va 1-8 semestrlarda o‘qitiladi. dirijyorlik amaliyoti, xor sinfi, xor partiturasini o‘qish, aranjirovka, vokal ansambli, vokal.

## **ASOSIY QISM**

### **Fanning amaliy (yakka) mashg‘ulotlar mazmuni**

#### **1-modul. “Dirijyorlik” faniga kirish. Dirijyorlik holati**

Dirijyorlik fani yakka mashg‘ulotlardan iboratdir. Yakka mashg‘ulotlarda bakalavr dirijyorlik apparati, qo‘llar vazifasi, auftaktlar, tovushni boshlash va uzish, faol va sust harakatlar, oddiy o‘lchovlardan murakkab o‘lchovlargacha, turli texnik qo‘l harakatlari, musiqiy dinamik tuslar, fermato, xor va orkestr ijrosini tasavvur qilish, dirijyorlik pulti, asarlarni dirijyorlik qila bilish, har bir xor partiyalarini tiniq, toza kuylay bilish hamda barcha asarlarni fortepianoda ijro qila olish, jahon, o‘zbek xor dirijyorlari va xor jamoalari ijodiy faoliyati haqida tasavvurga ega bo‘lish, xor jamoasi bilan ishlash va muloqot qilish, repetitsiya jarayonini tashkil etish, asarlarni tahlil qilish va mualliflar haqida ma’lumotlarni bilish hamda ulardan foydalana olish, jamoada o‘quv, pedagogik, tarbiyaviy ish olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish kerak.

Dirijyorlik holati - gavda, bosh va qo‘llarning to‘g‘ri holatda bo‘lishi, kuylashni boshlash - auftakt . Diqqatni bir nuqtaga to‘plash, kuylashni tamomlash harakatlari, dirijyorlik texnik harakatlarini o‘rganish, har turli templar ijrochisida aniqlilik, usullilik, tejamkorlik.

**Gordon Lamb “Choral Techniques”**

**Rice University, Houston, Texas, 2010, 6b.**

The posture of a conductor is just as important as the posture of a singer. It should not be ramrod stiff, nor should it be so loose that the gestures have no energy. The same element of dynamic tension that is so important to the buoyancy of singing is applicable

to conductors. The conductor should adopt a position of alertness that is inspired by energy but is not music bound. The feet of the conductor should be separated, the heels approximately six to eight inches apart. The knees should be flexible, not stiff. The weight should be distributed evenly on the balls of the feet. The conductor should lean slightly towards the choir. (The upper part of the body should be carried high.) The head should be held slightly in front of the shoulders, but without assuming a hunched position. A hunched position will appear extremely awkward to the choir and to the audience. It will also interfere with a good conducting style.

### **Tarjimasi**

Qo'shiqchining gavda holati qanchalik muhim bo'lsa, dirijyorning gavda (apparati) holati ham shunchalik muhimdir. Bu holat muqim (o'zgarmaydigan) holat bo'lishi mumkin emas. Xonandadeki dirijyorning dirijyorlik harakatlari ham erkin va shu bilan birga bo'shashgan bo'lishi mumkin emas. Aksincha harakatlar aniq va faol bo'lishi kerak. Xonandaning ovozi quyilib erkin chiqishi qanchalik muhim bo'lsa dirijyorning harakatlari ham o'ta qattiq, mushaklari tarang bo'lmasligi zarur. Aksincha mushaklar bo'sh, gavda esa ishga tayyor holatda bo'lishi lozim. Dirijyor oyoqlarini orasi ochiq, tovonlar 6-8 sm oralig'ida bo'lishi kerak. Tizzalar yumshoq va egiluvchan bo'lib gavdaning og'irligi ikki oyoqqa ham bir xilda tushishi kerak. Dirijyor tanasi xor tomonga ozgina egilgan, (gavdani tepa qismini og'ishtirmasdan) bukchaymasdan, bosh ozgina yelkadan oldinga egilgan holda bo'lishi kerak. Xor va auditoriya ro'parasida bukchayib turish o'ta yoqimsiz ko'rinadi.

## **2-modul. Dirijyorlik sxemalari**

Oddiy metro-ritmlarda dirijyorlik ifodalari - 2/4; 3/4; 4/4. Ularda qo'l harakatlarining hissalariga mosligi. Kuchli va kuchsiz hissalarining sxemada joylanishi. Oddiy metro-ritmlarda yozilgan xor asarlari dirijyorligi. Asar kirish qismiga, xor partiyasiga auktakt berish. Repertuarga kiritilgan xor asarlari partituralarining fortepianodagi ijrosi. Xor ovozlari partiyalarini- soprano, alt, tenor, bas - alohida va guruhlarida bir qo'lda chalish va ikkinchi qo'lda dirijyorlik qilish. Asardagi xor ovoz partiyalarini dirijyorlik qilib, sof va aniq kuylash. Ijroning badiiy-ifodaviy vositalari (temp, nyuans, frazirovka, tovush xarakteri va h.k.). Kamertonning qo'llanishi. Murakkab metro-ritmlarda dirijyorlik ifodalari- 8/4, 8/8,9/8,12/8. Aralash o'lchovlar. Ularda qo'l harakatlarining hissalariga mosligi. Kuchli va kuchsiz hissalarining sxemada joylanishi. Murakkab metro-ritmlarda yozilgan xor asarlari dirijyorligi. Asar kirish qismiga ,xor partiyasiga auktakt berish. Repertuarga kiritilgan xor asarlari partituralarining fortepianodagi ijrosi.

### **Gordon Lamb "Choral Techniques"**

#### **Rice University, Houston, Texas, 2010, 7b.**

The arms are the part of the body with which beginning conductors are most concerned. The body posture must be such that the arms can operate freely and most naturally. Before the basic patterns can be negotiated, the conductor must learn how to begin the conducting gestures. One should raise the hands almost as if one were going to catch a very large ball (a ball slightly larger than a basketball). The hands will come to a point slightly lower than the shoulder and the forearms will be facing inward from the elbows, rather than extending straight forward. The elbows will then be the farthest

points at the side of the body. If one is not using a baton, the fingers should be curved just a little to avoid any stiffness in the hand and to present a better appearance both to the ensemble and audience.

### **Tarjimasi:**

Dirijyor gavdasining bir qismi bo'lgan qo'llari- uning ish qurolidir. Ayniqsa o'z faoliyatini endigina boshlayotgan dirijyorlarning gavdasi, qo'llari, erkin va tabiiy bo'lishi kerak. Ular qay darajada yuqori ko'tarilgan bo'lishi karak? "Bu savolga quyidagicha javob beramiz. Qo'llar kerakli darajada yuqori qo'yilgan bo'lib xor va vokal ansambliga ko'rinib turishi va kerakli darajada past ham bo'lib qulay va erkin bo'lishi lozim". Qo'llarning harakat darajasi ansamblning hajmi katta yoki kichikligiga bog'liqdir. Qo'llar harakati yelkadan pastda bo'lib, ba'zan zarur bo'lganda, beldan pastroqda, ba'zan esa bu kam uchraydi, boshdan yuqoriroqda harakat qilishi mumkin. Har bir musiqa asarni yo'nalishi, tempiga asosan qo'llar harakati aniqlanadi. Tez templar keskin yo yumshoq, tejamkor yoki qisqa harakatlarni talab qiladi. Katta dramatik asarlarda esa qo'llar keng va to'liq harakatlanadi. Ba'zi misolar bundan istisno, musiqa asarlari ijrosi maxsus dirijyorlik harakatlarini talab etadi. Masalan, xor festivallarida qirq yoki ellik kishidan iborat xorlarga qaraganda oltiyuz xonadadan iborat xor uchun keng dirijyorlik qo'l harakatlari talab qilinadi.

### **3-modul. Usullik**

O'rganilayotgan xor asarning usuliga ko'ra necha hissaga dirijyorlik qilish uslubini tanlashni anglatadi. Bunda o'qituvchi tanlangan asarning sanog'i (razmeri)ga ko'ra dirijerlik sxemasini ko'rsatib beradi va talaba ushbu dirijerlik sxemasini o'zlashtiradi. Dirijerlik sxemasi mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

### **4-modul. Tejamkorlik, aniqlik**

Tanlangan xor asarlariga dirijyorlik qilish jarayonida qo'l harakatlarining asarda ko'rsatilgan dinamik (forte, piano, krishendo, diminuendo) tushlarga rioya qilish asosida ortiqcha harakatlarda qochish, shuningdek, qo'l harakatlarida aniqlikni anglatadi. Bunda har bir hissadan oldin keladigan auktaktga alohida berilishi nazarda tutiladi.

### **5-modul. Gavda, bosh va qo'llarni to'g'ri holatda tutish**

Xor asarlari ijrosida dirijerning o'z gavdasini va boshini to'g'ri tuta bilishi, oyoqlarning turg'un joylashuviga e'tibor berish, qo'llarning tegishligicha quyi, o'rta va yuqori holatlarga o'tishini nazorat qilish va amaliy bajarish tushuniladi.

### **6-modul. O'ng qo'l va chap qo'l vazifalarini o'rganish**

Xor asarlarini dirijyorlik qilish davrida qo'llarning parallel (bir xil) va ayri-ayri (misol uchun faqat o'ng qo'lning o'zida yoki o'ng qo'l taktlashda davom etgan davrda chap qo'lning cho'zilib turadigan tovushlarni turg'un (harakatsiz) holda to'xtab turishi, shuningdek kreshendo va diminuendo paytida pastdan yuqoriga yoki tegishligicha yuqoridan pastga harakatlanishi va boshqa holatlarni mashqlar yordamida o'zlashtirilishi nazarda tutiladi.

### **7-modul. Oddiy va murakkab o'lchovlariga dirijyorlik qilish**

Tanlangan xor asarning necha hissaga dirijyorlik qilinishidan kelib chiqib, oddiy va murakkabligini aniqlash va tegishli dirijyorlik sxemasida ijroni boshqarish ko'nikmalari tushuniladi (2/4; 3/4; 4/4-oddiy, 8/4, 8/8,9/8,12/8- murakkab).

### **8-modul.O'lhovlarni hissali shaklda dirijyorlik qilish**

Kuchli hissalar nisbatan shiddatliroq, kuchsiz hissalar esa nisbatan sustroq dirijyorlik qilish mashqlari orqali xor asarning o'lhovini mukammal o'rganish va doimiy ravishda sxemadan chiqib ketmasdan dirijyorlik qilish tushuniladi.

### **9-modul.Asarning dinamik tuslariga e'tibor berish**

Tanlangan xor asarda uchraydigan dinamik tuslar (piano, forte, mezzo piano,

mezzo forte, fortissimo, pianissimo, sforsando, subito piano va boshqa)ga mos ravishda qo'l harakatlarini tanlash va amalda bajarish tushuniladi.

### **10-modul.Asarlarning tempini his etib dirijyorlik qilish**

Xor asrning boshida (ba'zi hollarda asar davomida o'zgaradigan) ijro sur'atini belgilovchi iboralarni tushunish va shu ko'rsatmalarga amal qilgan holda auftakt tezligini aniqlash, shuningdek asossiz ravishda tezlashib yoki og'irlashib ketmasdan metronomda beriladigan temp (ijro sur'ati)ni ushlab turish tushuniladi. Shuningdek tegishli hollarda ijro sur'atini tezlashtirish(piu mosso, meno mosso, ritenuto) yoki og'irlashtirishni anglatuvchi iboralarga ham amal qilish talab etiladi.

### **11-modul.Asarning nazariy tahlili**

Bunda tanlangan xor asarning muallifi, yozilgan davri, xususiyati haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish, shuningdek asarning musiqiy tahlili, ya'ni necha qismdan (murakkab yoki oddiy) iborat ekanligi, fraza va jumllarini (tanalligi) aniqlash masalalari o'zlashtiriladi.

### **12-modul.Murakkab o'lhovlar ustida ish olib borish**

Muqaddam uchramagan murakkab o'lhovlar, almashib keladigan aralash o'lhovlar, shuningdek drobeniye (har bir hissaga 2 yoki uch martadan harakat qilish) uchun tegishli dirijyorlik sxemasini tanlash va mashqlar orqali o'zlashtirish tushuniladi.

### **13-modul.Badiiy jamoa bilan muloqot va ish olib borish malakalarini egallash**

Xor partitura (fortepiano ijrosiga mo'ljallangan asar) va opera, oratoriya, kontata suiyta klaverlaridan dirijyorlik qilishda tegishli xor gurug'lariga ko'rsatish malakasini egallash masalalari ustida ish olib boriladi.

**Xor san'ati janrlari – dirijyorlik fanida.** A'kapella. Qo'shiq. Syuita. Kantata. Oratoriy. Opera. Estrada qo'shiqchiligi.

### **Amaliy va yakka mashg'ulotlar**

### **Amaliy va yakka mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha**

## **tavsiyalar**

Talaba yakka mashg'ulotlarda jo'rsiz va jo'rli xor asarlarini o'rganadi. Yakka mashg'ulotlarda o'rganiladigan xor uchun asarlar quyidagi prinsiplar asosida tanlab olinadi: operadan xor parchalari, o'zbek, rus va qardosh davlatlar va jahon kompozitorlarining xor uchun yozilgan miniatyuralari, xor uchun qayta ishlangan xalq qo'shiqlari dirijyorlik malakalarini hosil qildiruvchi dirijyorlik apparati (gavda, bosh, oyoq, qo'l), qo'l harakatlarining ifodaviyligi, qo'llar differentsiatsiyasi, o'rganilayotgan asar obraziga mos bo'lgan aniq auktakt va tovushni uzish.

### **Amaliy va yakka mashg'ulotlarning taxminiy ro'yxati**

1. Dirijyorlik qilayotgan asari haqida ma'lumot to'plash
2. Asarni musiqiy-vokal tahlil
3. Xor partituralarni fortepianoda chalish,
4. Xorning ovoz ijrosini mos keltirish.
5. Asarlada xor partiturasida har bir ovozni ijro etish vokal uslublarini tahlili
6. Asarlarda har xil texnik malakalarni oshirish ustida mashqlar
7. Ishora, auktaktlar, temp, dinamik uslublari ustida mashqlar
8. 3/8, 5/4, 5/8, 6/4, 6/8, 7/4, 7/8, 9/4, 9/8, 12/4, 12/8 va boshqa dirijyorlik ulchovlari
9. Ushbu o'lchovlarda ichki hissalar pulsini aniqlab, asarga mansub bo'lgan usul yollarni topib to'g'ri ko'rsatish.
10. Turli dinamik, temp o'zgarishlar (agogika) ko'rsatish dirijyorlik uslublar ustida mashq.
11. Mashhur o'zbek – xormeysterlar ko'rsatgan ijodi faoliyatlari haqida ma'lumot to'plash.

### **Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

### **Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida rejalashtirilmagan

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Dirijyorlik fani bo'yicha mustaqil ta'lim mashg'ulotlari quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi: a'kapella asarlari partiturasining fortepianodagi ijrosini o'zlashtirish, a'kapella asarlari ovoz partiyalarini yoddan kuylab dirijyorlik qilish, a'kapella asarlari vertikalini kuylash, yirik asarlardan xor partiturasini fortepianoda ijro etish va ovoz partiyalarini kuylab, bir qo'lda dirijyorlik qilish, dasturga kirgan barcha xor asarlarining vokal-xor, musiqiy-nazariy tahlilini qila bilish, kollokvium topshirishga tayyorgarlik ko'rish.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari**

1. Auktakt nima? – uning o'ziga hos vazifasi, roli haqida.
2. Repertuar tanlash uslublari, usullari.
3. Jamoani ijodiy o'sishida repertuarni o'rni.
4. Repetitsiya jarayoni va uni samaradorligini oshirishda dirijyorning roli.

### **Dasturning informatsion-metodik ta'minoti**

Dirijyorlik fanini o'qitishda multemedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo'yicha ishlab chiqilgan POWER POINT formatdagi jadvallardan, kompyuter, audio va video jihozlaridan foydalaniladi. Shuningdek yakka mashg'ulotlar davomida dirijyorlikka oid tarqatma materiallar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bundan tashqari quyidagilar ham qo'llaniladi.

- didaktik materiallar tayyorlash;
- musiqiy-badiiy taxlil metodi
- internet tarmog'i saytlari.
- taqqoslash-qiyoslash metodi.
- 

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar :**

1. Shukurov J. Dirijyorlik. O'quv qo'llanma -Toshkent: 2006 y.
2. Bagirova F. Dirijyorlik. O'quv qo'llanma-Toshkent: 2010 y.
3. Musin I. Yazik dirijerskogo jesta. Uchebnoe posobiye-Muzika., M. 2006 y.
4. Chet el, rus va o'zbek kompozitorlari: Opera, oratoriya va kantatalaridan ariyalar, qo'shiqlar va romanslar.1991-2016y.
- 5.Choral techniques By: Gordon Lamb Onlaine: Rice University, Houston, Texas 2010.<<http://cnx.org/content/coll1191/1.1/>>

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Jalilov M. Qo'shiqlar xrestomatiyasi. 1,2 qism. O'qituvchi. T.,2002-2003 y.
2. "O'zbekiston Vatanim manim" – qo'shiqlar to'plami T.1996-2006
3. Г.Ержемский "Дирижёру XXI века" УзДК 2007

#### **Internet saytlari:**

1. [www.artist.uz](http://www.artist.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.jazz.ru](http://www.jazz.ru)
5. [www.atmuzik.ru](http://www.atmuzik.ru)
6. [www.universalia.nov.ru / instruments.](http://www.universalia.nov.ru/instruments)
7. [www.muzik.uz](http://www.muzik.uz)